



## O‘ZBEKISTONDA LEGAL TECH SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK DASTURLARINI ISHLAB CHIQUISH

*Xayrullayev Asadbek Ravshan o‘g‘li*

*Toshkent davlat yuridik universiteti*

*Jinoiy odil-sudlov fakulteti 1-kurs V-potok 1-guruh talabasi*

[Prokuror5511@gmail.com](mailto:Prokuror5511@gmail.com)

*Javoxir Eshonqulov*

*Ilmiy rahbar,*

[javoxireshonqulov0724@gmail.com](mailto:javoxireshonqulov0724@gmail.com)

*Toshkent davlat yuridik universiteti, Kiber huquq kafedrası o‘qituvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda Legal Tech sohasini rivojlantirishda xalqaro hamkorlik dasturlarining o‘rni va ahamiyati o‘rganiladi. Legal Tech – bu huquqiy xizmatlarni avtomatlashtirish va raqamlashtirish orqali huquqiy tizimning samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi soha bo‘lib, zamonaviy texnologiyalarni huquqiy xizmatlarga integratsiya qilish imkoniyatlarini taqdim etadi. Maqolada xalqaro tajriba va texnologik platformalarni O‘zbekistonga jalb qilish, hamkorlikdagi o‘quv va trening dasturlarini yo‘lga qo‘yish, va yuridik texnologiyalarni rivojlantirish uchun qo‘shma loyihalar yaratish kabi asosiy yo‘nalishlar ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlikning O‘zbekiston uchun istiqbollari, xususiyl sektor va davlat idoralari bilan hamkorlikdagi imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqola yakunida Legal Tech sohasini xalqaro miqyosda rivojlantirish va moslashtirish natijasida huquqiy tizimni zamonaviylashtirishda xalqaro hamkorlikning ijobiy ta’siri haqida xulosa chiqariladi.

**Kalit so‘zlar:** Legal Tech, xalqaro hamkorlik, xalqaro tajriba, milliy qonunchilik, raqamlashtirish.

### **Kirish**

#### **1. LegalTech sohasining umumiy ta’rifi**

LegalTech ("Legal Technology" so‘zining qisqartmasi) huquq sohasidagi xizmatlarni texnologiyalar yordamida avtomatlashtirish, samaradorligini oshirish va raqamlashtirishni nazarda tutadi. Ushbu soha asosan yuridik xizmatlarni ko‘rsatish jarayonini osonlashtiruvchi dasturiyl ta’minotlar, sun’iy intellekt (AI), blockchain texnologiyalari va boshqa ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash orqali amalga oshiriladi. LegalTech kompaniyalari yuridik xizmatlar jarayonini yanada



tezkor, arzon va qulay qilishga intiladi. Masalan, yuridik hujjatlarni tayyorlash, shartnomalarni tahlil qilish, huquqiy maslahat berish va sud jarayonlarini optimallashtirish kabi xizmatlar texnologik yechimlar orqali amalga oshiriladi.

LegalTech sohasining rivojlanishi yuridik xizmatlarning keng ommaga arzonroq va qulayroq bo'lishiga imkon beradi. Raqamlashtirish va texnologiyalar yordamida ishlar tezlashadi va inson omilidan kelib chiqadigan xatolar kamayadi. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida bu soha jadallik bilan rivojlanmoqda va an'anaviy huquqiy xizmatlarga muqobil bo'lmoqda.

## **2. O'zbekistondagi LegalTech sohasi**

O'zbekistonda huquqiy tizimning raqamlashtirilishi davlatning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat xizmatlarini raqamlashtirish, yuridik xizmatlar ko'rsatish jarayonini avtomatlashtirish va texnologiyalardan foydalangan holda yuridik infratuzilmani rivojlantirish borasida bir qancha islohotlar amalga oshirildi. Masalan, onlayn davlat xizmatlari, elektron huquqiy axborot tizimlari va sud protsesslarini raqamlashtirish O'zbekiston huquqiy tizimida amalga oshirilayotgan asosiy o'zgarishlar qatoriga kiradi.

LegalTech sohasi uchun maxsus qonunlar, litsenziyalash va xavfsizlik standartlarini ishlab chiqish muhim masala hisoblanadi. Bu sohada xalqaro tajriba va ilg'or texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, yuridik xizmatlar ko'rsatish uchun mobil ilovalar va onlayn platformalarni rivojlantirish O'zbekistonning raqamli transformatsiya rejasida muhim o'rin tutadi.

## **3. Xalqaro hamkorlik zarurati**

LegalTech sohasida xalqaro hamkorlik O'zbekiston uchun quyidagi sabablarga ko'ra katta ahamiyatga ega:

*Xalqaro tajriba va bilimlardan foydalanish:* Ko'plab davlatlar LegalTech sohasida yetakchi tajribaga ega. Masalan, AQSh, Yevropa davlatlari va Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda yuridik xizmatlar raqamlashtirilgan va samaradorlik oshirilgan. Ushbu tajribani o'rganish va joriy qilish O'zbekistonga sohani tezroq rivojlantirishda yordam beradi.

*Texnologik infratuzilma va ilg'or yechimlarni qo'llash:* Xalqaro hamkorlik orqali texnologik yechimlarni jalb qilish imkoniyati mavjud. Bu, masalan, huquqiy xizmatlar uchun sun'iy intellekt asosida tahlil qiluvchi dasturlar yoki blockchain texnologiyalari yordamida xavfsiz ma'lumot almashish imkonini beradi.

*Investitsiyalar va qo'llab-quvvatlash dasturlari:* Xalqaro hamkorlik orqali O'zbekistonga LegalTech sohasida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati



mavjud. Xususan, xalqaro grantlar, kreditlar va qo'shma loyihalar orqali LegalTech startaplarini moliyalashtirish va rivojlantirish mumkin.

Bu yo'nalishdagi xalqaro hamkorlik O'zbekistonda huquqiy tizimni raqamlashtirish va samaradorlikni oshirish uchun zarur bo'lgan global standartlarga mos keladigan texnologiyalarni joriy qilish imkonini beradi.

### **Xalqaro kamkorlikning ahamiyati va yo'nalishlari**

#### ***1. Huquqiy tizimni modernizatsiya qilish***

O'zbekiston huquqiy tizimida raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlarini amalga oshirish uchun xalqaro tajriba va texnologiyalardan foydalanish zarur. Rivojlangan davlatlarda huquqiy tizimni raqamlashtirish orqali samaradorlik va shaffoflikka erishgan. Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida qabul qilingan General Data Protection Regulation (GDPR)<sup>1</sup> qoidalari shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha xalqaro standartni belgilaydi va ushbu tartib LegalTech sohasida ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu hujjat asosida LegalTech platformalarida mijozlarning shaxsiy ma'lumotlari himoyasi xalqaro talablarga moslashtiriladi.

Shuningdek, UNCITRAL Model Law on Electronic Commerce<sup>2</sup> (BMTning Elektron tijorat bo'yicha namunaviy qonuni) yuridik jarayonlarni elektron shaklda amalga oshirish uchun xalqaro standartlarni belgilaydi. Bu qonun huquqiy tizimni elektronlashtirish va hujjatlar almashinuvi jarayonlarini xalqaro talablarga mos ravishda tashkil etishda asosiy hujjat hisoblanadi.

#### ***2. Texnologik platformalar va raqamli infratuzilmani rivojlantirish***

Xalqaro hamkorlik orqali ilg'or texnologik platformalardan foydalanish O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega. LegalTech platformalari yuridik xizmatlar ko'rsatish jarayonini optimallashtirish, yuridik hujjatlarni boshqarish va huquqiy tahlil kabi imkoniyatlarni kengaytiradi.

Masalan, World Economic Forum<sup>3</sup> tomonidan ishlab chiqilgan Global Technology Governance Framework hujjati xalqaro hamkorlikda texnologik platformalarni boshqarish va ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashni tavsiya qiladi. Ushbu hujjatda texnologiyalarni xalqaro miqyosda qo'llash uchun qoidalarga rioya qilish, xavfsizlikni ta'minlash va maxfiylikni saqlash masalalari belgilangan. Bu qoidalar O'zbekistonda LegalTech platformalarini rivojlantirishda xalqaro tajribani qo'llash uchun asosiy hujjat sifatida xizmat qiladi.

<sup>1</sup> Regulation(EU) 2016/679) - 14 april 2016

<sup>2</sup> 12-june (1996) with additional article 5 bis as adopted in 1998

<sup>3</sup> 24 January 1971 Klaus Schwab , www.weforum.org



### *3. Malakali mutaxassislarni tayyorlash*

LegalTech sohasida xalqaro hamkorlik orqali malakali yuridik texnolog mutaxassislarini tayyorlash muhim. Raqamlashtirilgan yuridik xizmatlar uchun texnik bilimlarga ega mutaxassislar kerak bo'ladi, bu esa xalqaro tajribani o'rganish va o'quv dasturlarini jalb qilish bilan amalga oshirilishi mumkin.

Masalan, European Skills Agenda<sup>4</sup> Yevropa Ittifoqida raqamli texnologiyalar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va qayta o'qitish dasturlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan hujjatdir. Ushbu dasturda texnologik o'zgarishlarga moslashish va texnik bilimlarni kengaytirish masalalari ko'tarilgan. Shuningdek, AQShning Legal Technology Core Competencies Certification Coalition<sup>5</sup> (LTC4) tomonidan ishlab chiqilgan malaka talabnomalari LegalTech sohasida mutaxassislarni sertifikatlash tizimini belgilaydi. Bu kabi hujjatlar xalqaro hamkorlik orqali O'zbekistonda yuqori malakali LegalTech mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

### *4. Huquqiy hujjatlar almashinuvi va standartlarni birxillashtirish*

Xalqaro hamkorlik LegalTech sohasida huquqiy hujjatlar va jarayonlar uchun umumiy standartlarni birxillashtirishga imkon yaratadi. Bu hujjatlar almashinuvi va axborot xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, The Hague Convention on the Service Abroad of Judicial and Extrajudicial Documents<sup>6</sup> xalqaro sud hujjatlarini boshqa davlatlarga yetkazishda standartlarni belgilaydi. Ushbu konvensiya huquqiy hujjatlar almashinuvi va yuridik jarayonlarni xalqaro darajada birxillashtirish uchun xalqaro hamkorlikni mustahkamlaydi. Bundan tashqari, UNIDROIT Principles of International Commercial Contracts<sup>7</sup> xalqaro savdo shartnomalari uchun umumiy qoidalarni belgilaydi. Bu qoidalar xalqaro yuridik xizmatlarni ko'rsatishda hujjatlar va shartnomalarni xalqaro talablarga mos ravishda ishlab chiqish imkonini beradi.

*5. Xalqaro hamkorlik orqali investitsiyalar va qo'llab-quvvatlash dasturlari*  
LegalTech sohasida xalqaro hamkorlik investitsiya jalb qilish va bu sohani moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Xalqaro moliyaviy institutlar, masalan International Finance Corporation<sup>8</sup> (IFC) yoki World Bank<sup>9</sup> orqali O'zbekiston LegalTech sohasiga investitsiyalar va grantlar jalb qilishi mumkin.

<sup>4</sup> Official website : [esco.ec.europa.eu](https://esco.ec.europa.eu)

<sup>5</sup> <https://ltc4.org>

<sup>6</sup> 15 November 1965 , [hcch.net](https://www.hcch.net)

<sup>7</sup> <https://www.unidroit.org>

<sup>8</sup> <https://www.ifc.org>

<sup>9</sup> <https://www.worldbank.org>



Ushbu tashkilotlar ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish va raqamli infratuzilmani yaratishga qaratilgan qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshiradi.

Xalqaro hamkorlikning ushbu yo'nalishlari O'zbekistonda LegalTech sohasini rivojlantirish, raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirish, va xalqaro standartlarga mos xizmat ko'rsatish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

### **Xalqaro hamkorlik dasturlarini rivojlantirish**

LegalTech sohasida xalqaro hamkorlik doirasidagi dasturlarni rivojlantirish O'zbekistonda raqamlashtirish va yuridik xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Ushbu hamkorlik orqali O'zbekistonda ilg'or texnologiyalarni joriy qilish, kadrlarni tayyorlash va huquqiy tizimni modernizatsiya qilish uchun zarur dasturlarni amalga oshirish mumkin. Quyida xalqaro hamkorlik doirasida rivojlantirish mumkin bo'lgan asosiy dasturlar va ular bilan bog'liq O'zbekiston qonunchiligidan ayrim misollar keltirish mumkin.

#### *1. Yuridik texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shma loyihalar*

Yuridik texnologiyalarni rivojlantirishda xalqaro hamkorlik asosida qo'shma loyihalar tashkil qilish O'zbekiston uchun katta ahamiyatga ega. Bunday loyihalar texnologiyalarni joriy qilish jarayonini tezlashtiradi va yangi ishlanmalarni sinovdan o'tkazish imkonini beradi. Qo'shma loyihalar doirasida O'zbekistonning yirik davlat idoralari va xalqaro tashkilotlar birgalikda dasturiy ta'minotlar, sun'iy intellekt (AI) asosida huquqiy tahlil qilish imkoniyatlari, va blockchain texnologiyalari asosida ma'lumotlarni himoyalash tizimlarini ishlab chiqishlari mumkin.

O'zbekiston qonunchiligi bo'yicha, 2019-yilda tasdiqlangan "Elektron hukumat to'g'risida"<sup>10</sup> Qonun davlat xizmatlarini raqamlashtirish va ularni rivojlantirishning muhim jihatlarini belgilaydi. Ushbu qonun xalqaro hamkorlikda ishlab chiqilgan yuridik texnologiyalarni davlat xizmatlariga integratsiya qilishda mustahkam huquqiy asos hisoblanadi.

#### *2. Ta'lim va trening dasturlari*

LegalTech sohasidagi muvaffaqiyatli islohotlar uchun malakali mutaxassislar kerak. Shu bois, xalqaro hamkorlik doirasida texnologik va yuridik bilimlarni birlashtirgan maxsus o'quv dasturlari va treninglar tashkil etish zarur. Ushbu trening dasturlari orqali O'zbekistondagi yuridik soha mutaxassislari yangi texnologiyalar bilan tanishishi va ulardan samarali foydalanishni o'rganishi mumkin.

<sup>10</sup> <https://lex.uz> O'RQ-395-son





O‘zbekistonda bu jarayonni huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun “Ta’lim to‘g‘risida”gi<sup>11</sup> Qonun mavjud. Ular ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va kadrlar tayyorlashning xalqaro standartlariga muvofiq bo‘lishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘tkaziladigan trening dasturlari uchun davlat tomonidan qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlash tizimi yaratilgan.

### *3. Huquqiy hujjatlar almashinuvi va standartlarni bixillashtirish*

Xalqaro hamkorlik huquqiy hujjatlar almashinuvi va yuridik standartlarni bixillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Yuridik texnologiyalar doirasida umumiy standartlarni ishlab chiqish va ularni tatbiq etish xalqaro hamkorlik orqali osonlashadi. Bu, masalan, yuridik hujjatlarni elektron formatda tayyorlash, raqamli imzolarni qo‘llash va hujjatlarni xalqaro standartlarga mos ravishda almashishni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston qonunchiligida bu yo‘nalish “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi<sup>12</sup> Qonun va “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi<sup>13</sup> Qonun orqali tartibga solinadi. Ushbu qonunlar huquqiy hujjatlar almashinuvini raqamlashtirish va xalqaro standartlarga moslashda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu hujjatlar asosida xalqaro tajribaga asoslangan yangi yuridik texnologiyalarni tatbiq etish O‘zbekistonda raqamli huquqiy infratuzilmani shakllantirishda samarali bo‘ladi.

### *4. Xalqaro investitsiyalarni jalb qilish va qo‘llab-quvvatlash dasturlari*

LegalTech startaplari va texnologik loyihalarni moliyalashtirishda xalqaro investitsiyalar va grantlarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega. Bunday qo‘llab-quvvatlash dasturlari yangi texnologiyalarni joriy qilish va ularni kengaytirish uchun moliyaviy resurslar yaratadi. Xalqaro tashkilotlar, xususan, Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki kabi tashkilotlar LegalTech sohasidagi loyihalarga investitsiya kiritishi mumkin.

O‘zbekiston qonunchiligida “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi<sup>14</sup> Qonun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan. Ushbu qonun xorijiy investorlar uchun huquqiy kafolatlar, soliq imtiyozlari va qulay investitsion sharoitlarni belgilaydi. Shuningdek, “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi<sup>15</sup> Qonun innovatsion startaplarni qo‘llab-

<sup>11</sup> <https://lex.uz> O‘RQ-637-son

<sup>12</sup> <https://lex.uz> 611-II-son

<sup>13</sup> <https://lex.uz> O‘RQ-793-son

<sup>14</sup> <https://lex.uz> O‘RQ-598-son

<sup>15</sup> <https://lex.uz> O‘RQ-630-son



quvvatlash va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu qonunlar LegalTech sohasida xalqaro investitsiyalarni jalb qilish va uni rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi.

“Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”<sup>16</sup> Qonun O‘zbekistonda tadqiqot ishlari va ilmiy-texnik rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash uchun mustahkam huquqiy asos yaratadi. Shu bilan birga, “Innovatsion rivojlanish to‘g‘risida”<sup>17</sup> Prezident qarorlari xalqaro tajriba almashinuvi va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirishni rag‘batlantiradi.

O‘zbekistonda LegalTech sohasida xalqaro hamkorlik doirasidagi dasturlarni rivojlantirish uchun huquqiy asoslar mavjud. Xalqaro hamkorlik orqali yuridik texnologiyalarni rivojlantirish, kadrlar tayyorlash, hujjatlar almashinuvi, investitsiyalarni jalb qilish va texnologik tajriba almashinuvi uchun zarur dasturlar amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birga, O‘zbekiston qonunchiligidagi tegishli hujjatlar bu jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash uchun xizmat qiladi.

O‘zbekiston qonunchiligi asosida o‘quv dasturlari va kadrlar tayyorlash jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun zarur sharoitlar mavjud. “Ta‘lim to‘g‘risida”<sup>18</sup> Qonun va “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi”<sup>19</sup> Prezident farmoni xalqaro tajriba asosida kadrlar tayyorlashga ko‘mak beradi.

Xalqaro hamkorlik yuridik xizmatlarda ma‘lumotlarni himoya qilish va raqamli xavfsizlikni ta‘minlash uchun zarurdir. Ma‘lumotlarni himoya qilish xalqaro standartlari, masalan, General Data Protection Regulation<sup>20</sup> (GDPR) kabi qoidalar asosida amalga oshirilishi mumkin. Ushbu qoidalar huquqiy texnologiyalarda shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish va xavfsizlikni ta‘minlash imkonini beradi.

O‘zbekiston qonunchiligida “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”<sup>21</sup> Qonun raqamli xavfsizlik va ma‘lumotlarni himoya qilish uchun asos yaratadi. Ushbu huquqiy asoslar xalqaro xavfsizlik standartlarini tatbiq qilish imkonini ber

### **Qonunchilikga taklif**

O‘zbekiston Respublikasining **“Elektron hukumat to‘g‘risida”<sup>22</sup> qonuniga** taklif etiladigan qo‘shimchalar:

<sup>16</sup> <https://lex.uz> PQ-3855-son

<sup>17</sup> <https://lex.uz> PQ-307-son

<sup>18</sup> <https://lex.uz> O‘RQ-637-son

<sup>19</sup> <https://lex.uz> PQ-307-son

<sup>20</sup> <https://gdpr-info.eu>

<sup>21</sup> <https://lex.uz> O‘RQ-793-son

<sup>22</sup> <https://lex.uz> O‘RQ-395-son



*Mavjud modda (6-modda):*

“Elektron hukumatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

-davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirish;

-davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslar bilan o'zaro hamkorligini takomillashtirish;”

**Taklif etiladigan qo'shimchalar:**

6-moddaga quyidagi bandlarni kiritish:

**Sun'iy intellektdan foydalanish:**

Davlat organlarida huquqiy hujjatlarni tahlil qilish uchun sun'iy intellekt tizimlarini joriy etish;

Fuqarolarning murojaatlarini avtomatik ravishda tasniflovchi va yo'naltiradigan AI tizimlarini yaratish;

Huquqiy ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda machine learning texnologiyalaridan foydalanish;

**Yuridik xizmatlarni avtomatlashtirish:**

Standart shartnomalarni avtomatik tarzda shakllantirish tizimini joriy etish;

Huquqiy maslahatlarni chatbot orqali taqdim etish;

Sudga oid hujjatlarni to'ldirish va topshirishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish;

**Blockchain texnologiyasini qo'llash:**

Notarial harakatlarni blockchain asosida amalga oshirish;

Smart-kontraktlardan foydalanish imkoniyatini yaratish;

Yuridik hujjatlarning autentifikatsiyasini blockchain orqali ta'minlash;

**Ma'lumotlar xavfsizligi:**

Yuridik ma'lumotlarni kriptografik himoyalash;

Shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash bo'yicha zamonaviy texnologik yechimlarni joriy etish;

Elektron imzoning yangi avlodini ishlab chiqish;

**Amalga oshirish mexanizmlari:**

Pilot loyihalarni ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish;

Xorijiy tajribani o'rganish va mahalliy sharoitga moslashtirish;

Mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish;

Texnik infratuzilmani yaratish va modernizatsiya qilish;

**Kutilayotgan natijalar:**

Davlat xizmatlarining sifati va tezkorligini oshirish;

Byurokratik to'siqlarni kamaytirish;





Korrupsiya xavfini pasaytirish;

Fuqarolarning huquqiy xizmatlarga bo'lgan ishonchini oshirish;

### **Xulosa**

Umuman olganda, O'zbekistonda LegalTech sohasini rivojlantirish uchun xalqaro hamkorlik keng istiqbollarga ega. Bu hamkorlik orqali raqamli texnologiyalarni yuridik sohada qo'llash, yuridik xizmatlarni avtomatlashtirish va raqamlashtirish, kadrlarni tayyorlash va huquqiy infratuzilmani mustahkamlash imkoniyati mavjud. Jahon tajribasidan foydalanish orqali texnologiyalarni tatbiq etish samaradorligini oshirish, xizmat ko'rsatishda xalqaro standartlarga moslashish va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishni takomillashtirish imkoniyatlari ochiladi.

Xalqaro grantlar, kreditlar va qo'shma tadqiqot loyihalari orqali moliyaviy va ilmiy-texnik resurslarni jalb qilish, hamkorlikda treninglar va malaka oshirish dasturlarini tashkil qilish O'zbekistonda malakali mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, xalqaro forumlar, konferensiyalar va seminarlar O'zbekiston yuridik sohasi uchun global yutuqlar va yangi texnologiyalarni o'rganish uchun muhim platforma hisoblanadi.

O'zbekistonda mavjud qonunchilik, jumladan, "Elektron hukumat to'g'risida"<sup>23</sup>, "Elektron raqamli imzo to'g'risida" gi qonunlar yuridik texnologiyalarni joriy qilish uchun mustahkam huquqiy asos yaratadi. Shu sababli, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali O'zbekiston yuridik xizmatlarning innovatsion yondashuvlar asosida takomillashishi va raqamlashtirilgan xizmatlar joriy qilinishini ta'minlashi mumkin.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. *Regulation(EU) 2016/679) - 14 april 2016 12-june (1996) with additional article 5 bis as adopted in 1998 24 January 1971 Klaus Schwab , [www.weforum.org](http://www.weforum.org)*

2. *Eshonkulov, J. (2024). Legal foundations for the application of artificial intelligence Technologies in the Sports Industry. American Journal of Education and Evaluation Studies, 1(7), 240-247. <https://semantjournals.org/index.php/AJEES/article/view/320/287>*

#### **Official website :**

1. [esco.ec.europa.eu](http://esco.ec.europa.eu)
2. <https://lrc4.org>

<sup>23</sup> <https://lex.uz> O'RQ-395-son



3. *15 November 1965 , hcch.net*
4. *<https://www.unidroit.org>*
5. *<https://www.ifc.org>*
6. *<https://www.worldbank.org>*
7. *<https://gdpr-info.eu>*
8. *<https://lex.uz>*